

## Sobiq xodimalarni yo'qlab

Ayni kunlarda nafaqaga chiqqanlar ham aslida, bizning xodimimiz, garchi sobiq bo'lsa ham ular bir paytlari sidqidildan ishlab o'z xizmatlariga sadoqat bilan xizmat qilishgan. Ular holidan xabar olish ham insoniylik mezoni. Yuksak ehtiromning belgisi.



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Talabalar turar joylarida ishlab, hozirgi kunda nafaqaga chiqqan ishchi xodimlar institutimiz rahbariyati, TTJ Direktori I.Buxorov, Talabalar turar joylari kengashi raisi J.Saidahmedov tomonlaridan 8-mart Xalqaro xotin - qizlar bayrami munosabati bilan tabriklash maqsadida To'xtayeva Nasiba, Shoyoqubova Nayima va Tosho'latova Tursunoy opalarning xonadonlariga tashrif buyurildi. Ta'bir joiz bo'lsa, ularning qalbi osmon bo'ldi.



**Talabalar turar joylari kengashi raisi Saidahmedov.J axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**